



Rayxon RAXIMOVA,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi
E-mail: r_raximova@gmail.com

O‘zXIA dotsenti, f.f.f.d.(PhD) M.Xo‘jayev taqrizi ostida

JAHONDA OILA AJRIMLARI GLOBALLASHUVNING ASOSIY MUAMMOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Ajralish – bola rivojlanishining eng muhim omili asosan butun hayoti davomida ta’sir qiladigan “to‘liq oila” tushunchasiga chek qo‘yadigan hodisa. Bu jarayonda bolalarni tarbiyalash qiynlashadi. Aksariyat ota-onalar farzandlarining qiziqishlarini unutib, ularning ta’lim olishiga e’tibor bermaydilar.

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida jahonda oila inqirozi, xususan ajralishlar sonining ko‘payishi, kelib chiqish sabablari va oldini olish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, oila, omil, ajrim, munosabat, globallashuv, tizim.

РАЗВОД В СЕМЬЕ В МИРЕ КАК ГЛАВНАЯ ПРОБЛЕМА ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

Развод – явление, которое ставит крест на понятии «полноценная семья», которое является важнейшим фактором развития ребенка и влияет на него на протяжении всей его жизни. В этом процессе становится сложно воспитывать детей. Большинство родителей забывают интересы своих детей и пренебрегают их образованием.

В данной статье рассматривается кризис семьи в мире в условиях глобализации, в частности рост числа разводов, причины возникновения и пути их предотвращения.

Ключевые слова: стабильность, семья, фактор, решение, отношения, глобализация, система.

FAMILY DIVORCE IN THE WORLD AS THE MAIN PROBLEM OF GLOBALIZATION

Annotation

Divorce is a phenomenon that puts an end to the concept of a “complete family”, which is the most important factor in the development of a child and affects it throughout its life. In this process, it becomes difficult to raise children. Most parents forget their children's interests and neglect their education.

This article examines the global family crisis in the context of globalization, in particular the increase in the number of divorces, causes of origin and ways of prevention.

Key words: stability, family, factor, decision, relationship, globalization, system.

Kirish. “Oilalar barqarorligining bosh omillaridan biri sanalgan moddiy ta’minlanganlik darajasining to‘lqin ko‘rinishida o‘zgarib turishi ichki sosial tanglikni kuchaytirmoqda. Bunday noqobil – ya’ni, ichki munosabatlar tizimi izdan chiqqan oilalarga alohida e’tibor berish va tegishli yordamlar ko‘rsatish zarur. Noqobil oilalarda ijtimoiy-ruhiy yetuklikka erishmagan ota-onalar orasida alkogolli yoki giyohvand moddalarni qabul qilish yoki qonunbuzar hatti-harakatlarga sabab bo‘lmoqda. Yechimi topilmagan muammolar girdobidagi bu kabi oilalar ziddiyatlarida aziyat chekuvchi asosiy qatlam esa bolalar bo‘lmoqda. Ammo, tadqiqot ishtirokchilarining mutlaq ko‘pchiligi 71,8% o‘z oilasidagi muhitni «yaxshi» deb biladilar. 66% ishtirokchilar oilaviy hayotidan qoniqadilar”[1].

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O‘zbekistonda ham ajralish muammosini o‘rganishga keng ilmiy jamoatchilik e’tibori qaratilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda ajralish muammosini ilmiy asosda o‘rganish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu o‘rinda ajralish omillari va sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Faktlar shuni ko‘rsatadiki, ajralish zarur bo‘lgan hollarda ham, barcha muammolar ajralish bilan tugamaydi. Ajralayotgan tomonlar iqtisodiy, moddiy va ma’naviy jihatdan silkinib, ularning jamiyatdagi mavqeiga ta’sir qiladi. Shu sababli, ajralish, so‘zning to‘g‘ri ma’nosida, nikohdan oldingi erkinlikka yoki

najotga qaytishni anglatmaydi. Keyinchalik katta muammolar boshlanadi: bolalar kim bilan qoladi, aliment to‘lash masalasi va eng murakkab masala - qayta oila. Bolalarning o‘gay ona yoki ota, o‘gay aka- uka va opa-singillarga bo‘lgan xatti-harakati, onaning yangi turmush o‘rtog‘i va uning bolalariga munosabati o‘gay ota-onalik davrida o‘zini yolg‘iz his qiladigan bolaning egoizmi va axloqiy ongida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan, onaning tashvishidan kelib chiqadigan qarama-qarshi xatti-harakatlar bolani bezovta qiladi. Ba’zida hamma narsadan to‘ygan onaning qattiq reaksiyalari ularga zararli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha ona bolasini mag‘lubiyatga uchragan vaziyatda ayblaydi. Bu xatti-harakatlar bolaning ota-onasi tomonidan sevilmasligini his qiladi.

Tajribadan ma’lumki normal sharoitda voyaga yetgan, to‘g‘ri tarbiya va ta’lim olgan yosh avlod barpo etgan oila mustahkamdir. Binobarin, yoshlarning yoshligidanoq milliy ruhda tarbiyalanishi, yaxshi o‘qishi, bilimli, zukko bo‘lishi, kasb-hunar egallash odatlariga ega bo‘lishi oilaning yaxlitligi nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. “Shunday qilib, oilada kasbiy ijtimoiylashuv – shaxsning kasb egasi sifatida shakllanish va o‘z imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda namoyon eta olish jarayonidir. Tadqiqotda quyidagi kasbiy-ijtimoiy infrastrukturallarni ajratdik: tashqi infrastruktura, ya’ni oila va oilaviy munosabatlar, ta’lim dargohlari, turli mutasaddi tashkilotlar va ijtimoiy institutlar faoliyati, OAV, internet, shuningdek tarbiya maskani sifatida “ko‘cha”; ichki infrastruktura sifatida turli

kasbga yo'naltirilgan qarash, g'oya, qadriyat, hayotiy va ma'naviy tajriba, fikr, tafakkurlarning inson hayotida namoyon bo'lishi va ularning funktsionallik darajalarini anglatadi"[2].

Dolzab masalalardan biri - nikohdan oldin yoshlar o'rtasidagi bo'lajak oilaviy munosabatlarni rejalashtirish, barcha nozik jihatlarni eng kichik tafsilotlargaacha aniqlashtirishdir. Albatta, bizning mentalitetimiz, urf-odat va tafakkur tarzimiz hali G'arb amaliyotiga xos bo'lgan "nikoh shartnomasi" ni ommaviy qo'llashga imkon bermaydi. Ma'lumki, bir qator mamlakatlarda oila qurgan yoshlar o'zaro munosabatlarining kelajagi haqida oldindan yozma shartnoma tuzadilar. Bu shartnoma ularning huquq va majburiyatlarini, mulkka bo'lgan talablarini belgilaydi. Ba'zan shunday fikrlar bildiriladiki, nikoh shartnomasini imzolash natijasida yuksak, sof his-tuyg'ular amalga oshadi, ya'ni kelajakda ishonchsizlik va shubhalar paydo bo'lishi mumkin. Biroq, bu masalaga mentalitet darajasida emas, balki huquqiy va ijtimoiy voqelik prizmasidan yondashish to'g'iroqdir.

Bizni tashvishga solayotgan yana bir muammo oiladagi zo'ravonlikdir. Hatto, eng rivojlangan jamiyatlarda ham ayollar har xil zo'ravonlikka duchor bo'lishadi. O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi uydagi zo'ravonlikni aniqlash juda qiyin. Mamlakatimizda zo'ravonlik, shuningdek ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik hatto voqea bo'lsa bu qabul qilinishi mumkin emas. An'analar va mentalitetimizdan foydalanib, bunday xatti-harakatlarni targ'ib qilish axloqsizlik ekanligini ta'kidlamochimiz. O'zbekiston xalqining urf-odatlarida ayollarga katta hurmat va g'amxo'rlik ko'rsatilgan. Oilaviy qadriyatlar jamiyatimizning eng muhim qimmatli qadriyatlar bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Turli madaniyatlar ta'sirida O'zbekistonda oila instituti hech qachon o'z kuchini yo'qotmagan. Bugun o'zining ma'naviy-ruhiy fazilatlarini, xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini bilan yashayotgan O'zbekistonlik yoshlar oilaning hayotidagi beqiyos o'rni, oila qurish, oila muqaddas ekanligini mas'uliyatini chuqur anglab yetmoqda. Oila shunday muqaddas birlikki, uning samimiyligi, pokligiga hech qanday sharoitda zarar yetkazish mumkin emas. Oila zamonaviy sivilizatsiyaning asosidir. Bugungi jamiyatning shakllanishi, uning asosi bo'lgan barcha ma'naviy qadriyatlar ilk bor shu o'choqda yaratilib, so'ngra jamiyatning umumiy qadriyatlariga aylanadi. Rivojlangan jamiyatlarda oila salomatligi axloqiy va milliy qadriyatlar tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi u jamiyat tomonidan himoya qilinadi.

Buyuk mutafakkirlarimiz ta'kidlaganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashda oila birinchi o'rinda turadi. Oila asosiy tarbiyaning o'chog'idir. Oila har bir xalq, millat davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlar rivojini ta'minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, ma'naviy, moddiy tarbiyasida asosiy omil va vosita oila hisoblanadi. Bunda ota-ona san'atkor, bola esa san'at asari, tarbiya esa san'atning o'zidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada globallashuv sharoitida jahonda oila ajrimlarining asosiy muammosi va uning mohiyatini yoritib berishning o'ziga xos xususiyatlari ob'ektiv o'rganildi hamda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oila ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan muqaddas an'ana va urf-odatlariga hurmat, Vatanga muhabbat, iymon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq, ma'naviyat va madaniyat ko'nikmalarini singdiradi. Bu esa komil insonga xos bo'lgan xislatlardir. Oilada bu fazilatni farzandlar ongiga singdirish uchun ota-onalar savodxonligi, zamon bilan

hamnafasligi, ajdodlar ruhiga sodiqligi, sog'lom tafakkurga ega ekanligi muhim rol o'ynaydi. "Oilada sog'lom va obod turmush tarzi iqtisodiy va ma'naviy omillarning o'zaro uyg'unligida qaror topadi. Shuning uchun oila infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiy asoslarini madaniylashtirish, milliy mafkuraning bosh g'oyasi - erkin va farovon hayotni yaratish, uning ma'naviy-madaniy darajasini yuksaltirish sohasida keng ko'lamda davlat siyosatini amalga oshirish, shaxsiy va ijtimoiy farovonlikning uyg'unligini ta'minlash sog'lom turmush tarzi qaror topishining negizini tashkil etadi"[3].

Barkamol insonni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi ekan, bu vazifani bajarishda, ya'ni yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda Xitoy faylasufi Konfutsiyaning so'zlarini yodga olishimiz zarur: «Barkamollik darajalariga erishish uchun qalb pokizaligi haqida o'ylab ko'rish kerak. Qalb pokizaligiga esa yurak haqiqatni izlaganda va ruh oriflikka intilgan taqdiridagina erishiladi. Bularning barchasi haqiqiy bilimga bog'iqdir» [4].

Oiladagi sog'lom muhitni yaratish ham ota, ham onaga bog'liq. Er-xotin bir-birini tushunishi va e'zozlashi, bir-biriga ishonch bildirishi, mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, farzand tarbiyasida teng mas'ullik ota-onaning oila oldidagi burchidir. Oilada farzandning ota-ona oldidagi burchi ham nihoyatda muhim. O'g'il bola otaga qiz bola onaga ko'makdosh bo'lishi zarurdir. Bog'bon umid bilan nihol ekkani kabi, ota ona ham ezgu niyat bilan farzandini dunyoga keltiradi, ardoqlab o'stiradi. Daraxtning shirin - shakar mevalaridan bahramand bo'lishni orzu qilgan bog'bondek, ota-ona ham o'z farzandi aqlli, mehnatsyovar, bilimli jamiyat taraqqiyoti uchun halol mehnat qiluvchi, ma'nau va jismonan barkamol qilib tarbiyalash uchun bor kuchi va imkoniyatini sarf etadi.

Hech bir ota-ona farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi, chunki, xalqimiz aytganidek, farzand yurak yog'idan yaratilgan. Farzand tarbiyasi haqida Fitratning "Oila" asarida mukammal ko'rsatmalar berilgan. U, "har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi".[5] - deb yozadi. Bu fikrlarga qo'shilgan holda, yana shuni yoddan chiqarib kerakki, oilada har bir farzandning yuksak ongi, yangicha tafakkur va dunyoqarashi, odob-axloqi, yuksak ijtimoiy munosabat mohiyatini anglab yetishi ota-onaning majburiyati, hattoki, axloqiy va huquqiy burchidir. Chunki, Vatanning kelajagi bo'lgan farzandlarimizga "milliylik", "milliy tuyg'u", milliy mafkura, iymon, vatanparvarlik, insonparvarlik tushunchalarini bolaning besh, yetti yoshidan ongiga chuqur singdirganimizda ko'zlangan maqsadga ya'ni, oilada ma'naviy - madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy, sog'lom muhitning yaratilishiga erishish mumkin. Aynan shu davrda bola yaxshiyomon narsalarni anglay boshlaydi. "Oilada farzand ijtimoiy makonga bo'lgan shaxsiy munosabatini, ya'ni o'zi yashayotgan jamiyat hamda umumbashariyat hayotiga bo'lgan o'z shaxsiy qarashlari tizimini shakllantiradi. Farzandni mana shu ijtimoiy makonga nafaqat kiritish, balki mana shu makon ichida uning faol yashashini ta'minlash zarur. Farzandning ijtimoiy makondagi faolligining ko'rsatkichlaridan biri uning kasbiy faolligidir.

Kasbiy faollikni ta'minlash uchun, avvalo, oila muhitida farzandning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash zarur. Binobarin, oilaning ijtimoiy mavqei oila farzandning ijtimoiy integratsiyasi orqali yo yuqoriga ko'tariladi, yoki pastga ketadi. Farzandning tarbiyalanganlik darajasi oilaning ijtimoiy mavqeini ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, oilada kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlashning bugungi kundagi shart-sharoitlari yangi vazifani, ya'ni o'zbek oilalaridagi kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlash jarayonini

innovation mazmun bilan boyitish vazifasini kun tartibiga qo'yadi. Bugungi kunda kasbiy ijtimoiylashuv borasidagi milliy va umumbashariy qadriyatlarini, mavjud qarashlarni tanqidiy va ijodiy o'zlashtirish va keng targ'ib etish zarur"[6].

Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli ham ajralishlar sonini kamaytirish bo'yicha xalq va davlat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsagina ma'lum bir natijaga erishish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oilada ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy muhit sog'lom bo'lsa, bolaning ongi yaxshilik, mehr-oqibat, or-nomus, samimiyat, to'g'riso'zlik kabi muqaddas tushunchalarni qamrab oladi.

Ota-onaga, Vatanga va atrofdagi barcha insonlarga hurmat burchini chuqur anglash odamiylik fazilatidir. A.Avloniy esa tarbiya doirasini keng tarzda mushohada qilib, uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. A.Avloniy tarbiyani quyidagicha tasvirlab beradi: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir",[7] –. Chunki, Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko'chadi. Masalan, u tana va ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi: "Badan tarbiyasining, fikrlar tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkalasi bir choponning o'ng ila ters tomoni kavidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustuni qo'yub, astarini yuvib o'vora bo'lmoq kavidirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur". Shunday ekan, jism va ruh shakl bilan mazmunning uzviy birligi va ularning o'zaro bir-biriga ta'siri masalasi juda muhim va murakkabdir.

ADABIYOTLAR

1. Palvaniyazov A.Yu. O'zbekistonda yosh oilalarning barqarorlik omillari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). Sosiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent, 2019. -B.17.
2. Begmatova D.M. Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. -B.16.
3. Ro'zimurodov S.M. Oilada sog'lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik muammolari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2020. -B.18.
4. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2000.
5. Fitrat. Oila. -Toshkent.: Ma'naviyat. 1998.-B. 13.
6. Begmatova D.M. Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. -B.21.
7. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2-jild. -Toshkent.: Ma'naviyat. 1998. -B.38.